

ABU ALI IBN SINO BUYUK QOMUSIY ALLOMA

*To`raqulov Elbek Murodullayevich**1-son Davolash ishi fakulteti 4-bosqich talabasi**Ilmiy rahbar: Maxmudova Aziza**Nugmanovna, professor, Ijtimoiy
va gumanitar fanlar kafedrası mudiri
Samarqand davlat tibbiyot universiteti*

Annotatsiya: Abu Ali Ibn Sino (Avicenna) — oʻrta asrlarning eng buyuk mutafakkirlaridan biri boʻlib, uning asarlari falsafa, tibbiyot, axloq va badiiy tasvirlar sohaslarida muhim ahamiyatga ega. U 980-yilda Buxoroda tugʻilgan va 1037-yilda Xurosonda vafot etgan. Ibn Sino oʻzining "Tib qonunlari" (Kitab al-Qanun fi al-Tibb) asari bilan tibbiyot sohasida inqilobiy yutuqlarga erishgan, bu asar yuzyillar davomida Evropada va Islom dunyosida asosiy tibbiy qoʻllanma sifatida xizmat qilgan. Ibn Sino falsafiy gʻoyalari orqali mantiq, metafizika va axloqiy masalalarni chuqur oʻrganib, insonning ruhiy va jismoniy holatini bir butun sifatida koʻrishga harakat qilgan.

Kalit soʻzlar: falsafa, tibbiyot, axloq, badiy adabiyot, inson psixologiyasi, mantiq, "Tib qonunlari", oʻrta asrlar.

Аннотация: Абу Али ибн Сина (Авиценна) — один из величайших мыслителей Средневековья, чьи труды имеют важное значение в области философии, медицины, этики и художественного изображения. Он родился в 980 году в Бухаре и умер в 1037 году в Хорасане. Ибн Сина добился революционных достижений в области медицины своим трудом «Каноны врачебной науки» (Китаб аль-Канун фи аль-Тибб), который на протяжении столетий служил основным медицинским руководством в Европе и исламском мире. Благодаря своим философским идеям Ибн Сина глубоко изучал логику, метафизику и этические вопросы, пытаясь увидеть психическое и физическое состояние человека как единое целое.

Ключевые слова: философия, медицина, этика, художественная литература, психология человека, логика, «Канон врачебной науки», средние века.

Abstract: Abu Ali Ibn Sina (Avicenna) is one of the greatest thinkers of the Middle Ages, whose works are important in the fields of philosophy, medicine, ethics and artistic depiction. He was born in 980 in Bukhara and died in 1037 in Khorasan. Ibn Sina achieved revolutionary achievements in the field of medicine with his work "The Canons of Medicine" (Kitab al-Qanun fi al-Tibb), which served as the main medical manual in Europe and the Islamic world for centuries. Through his philosophical ideas, Ibn Sina deeply studied logic, metaphysics and ethical issues, trying to see the mental and physical state of man as a whole.

Key words: philosophy, medicine, ethics, fiction, human psychology, logic, "The Canons of Medicine", Middle Ages.

980-yilning 18-iyunida Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan va 1037-yilning 16-avgustida Hamadonda vafot etgan. G'arbda Avitsenna (ingl. Avicenna) nomi bilan mashhur. Ibn Sinoning otasi Abdulloh Balx shahridan bo'lib, Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur (967—997) davrida Buxoro tomoniga ko'chib, Hurmaysan qishlog'iga moliya amaldori etib tayinlanadi. U Afshona qishlog'ida Sitara ismli qizga uylanib ikki o'g'il farzand ko'radi. O'g'illarining kattasi Husayn (Ibn Sino), kenjasi Mahmud edi. Husayn 5 yoshga kirgach, Ibn Sinolar oilasi poytaxt — Buxoroga ko'chib keladi va uni o'qishga beradilar. 10 yoshga yetar yetmas Ibn Sino Qur'on va adab darslarini to'la o'zlashtiradi. Ayni vaqtda u hisob va aljabr bilan ham shug'ullanadi, arab tili va adabiyotini mukammal egallaydi. Dovrug'i butun shaharga yoyilgan yosh tabibni amirni davolash uchun saroyga taklif qiladilar. Uning muolajasidan bemor tezda sog'ayib, oyoqqa turadi. Evaziga Ibn Sino saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Somoniylarning kutubxonasi o'sha davrda butun O'rta va Yaqin Sharqdagi eng katta va boy kutubxonalardan sanalardi. Ibn Sino bir necha yil davomida shu kutubxonada kechayu kunduz mutolaa bilan mashg'ul bo'lib, o'z davrining eng o'qimishli, bilim doirasi keng kishilaridan

biriga aylandi va shu paytdan boshlab o'rta asr falsafasini mustaqil o'rganishga kirishdi. U yunon mualliflarining, xususan, Aristotelning „Metafizika“ asarini berilib mutolaa qildi. Lekin bu kitobda bayon qilinganlarning aksariyati Ibn Sino ga tushunarsiz edi. Tasodifan yosh olimning qo'liga Abu Nasr Forobiyning „Metafizikaning maqsadlari haqida“gi kitobi tushib qoladi va uni o'qib chiqibgina Ibn Sino metafizikani o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Ibn Sino tarjimai holining yozilib qolishi, ko'pgina asarlarining ta'lifi va tartibga tushishi hamda ularning keyingi avlodlarga kelishida Jurjoniyning xizmati katta. Jurjondalik vaqtida Ibn Sino ham ilmiy ijod bilan shug'ullandi, ham tabib sifatida faoliyat ko'rsatdi. Bu yerda u shogirdining iltimosiga ko'ra, mantiq, falsafa va boshqa fanlarga oid bir nechta risola yozdi va eng muhimi „Tib qonunlari“ning dastlabki qismlarini yaratdi. 1014-yil olim Jurjonni yotishlar olimning salomatligiga jiddiy ta'sir etdi. U qulanj (Kolit) kasalligiga chalindi. Alouddavlaning Hamadonga yurishi vaqtida Ibn Sino qattiq betobligiga qaramay, u bilan birga safarga chiqadi. Yo'lda dardi qo'zg'ab olimning tamomila madori quriydi va oqibatda u shu darddan 57 yoshida vafot etadi. Olim Hamadonda dafn etiladi. Uning qabri ustiga 1952-yilda maqbara ishlangan (me'mori X. Sayxun). Maqbara Ibn Sinoga bag'ishlangan muzey xonalarini ham o'z ichiga oladi. Zamondoshlari Ibn Sinoni „Shayx ar-Rais“ („donishmandlar sardori, allomalar raisi“); „Sharaf al-mulk“ („O'lka, mamlakatning obro'si, sharafi“), „Hujjat al- haqq“ („Rostlikka dalil“); „Hakim al-vazir“ („Donishmand, tadbirkor vazir“) deb ataganlar. Jahon fani tarixida Ibn Sino qomusiy olim sifatida tan olingan, chunki u o'z davridagi mavjud fanlarning qariyb barchasi bilan shug'ullangan va ularga oid asarlar yozgan. Olim asarlarini o'sha davrda Yaqin va O'rta Sharqning ilmiy tili bo'lgan arab tilida, ba'zilar (she'riy va ayrim falsafiy asarlari)ni fors tilida yozgan.

Ibn Sino tushunchasida bilimlarni chuqur o'rganish orqali xudoni bilish mumkin degan fikr yotadi. U mavjud bilimlarni egallagan insongina haqiqiy musulmon bo'la oladi, deb tushunadi. Ibn Sino mantiqni ilmiy bilishning, mavjudotni o'rganishning ilmiy usuli deb biladi. „Mantiq, — deb yozadi Ibn Sino — insonga mantiq, matematik, fizik, psixolog, faylasuf va buyuk fors va tojik tillari o'qituvchisi.

Ibn Sino turli fanlar bo'yicha 450 dan ortiq risolalar yozgan bo'lsa, ulardan faqat 240 tasi bizgacha yetib kelgan. Bu dissertatsiyalar fanning aksariyat sohalarini qamrab olgan bo'lib, xususan, ularning 150 tasi falsafa, 40 dan ortig'i esa tibbiyot sohasiga oid. Ibn Sinoning tib ilmida yuksak mahoratga erishishida Buxorolik boshqa bir tabib Abu Mansur al Hasan ibn Nuh al Qumriyning xizmati katta bo'ldi. Ibn Sino undan tabobat darenii olib, bu ilmning ko'p sirlarini o'rgangan. Qumriy bu davrda ancha keksayib qolgan bo'lib, 999-yilda vafot etdi. Buxoroni zabt etib, Somoniylar davlatini ag'darganidan keyin Ibn Sino hayotida tashvishli, notinch va og'ir damlar boshlandi. 1002-yil uning otasi vafot etdi. Ikki sulola vakillarining taxt uchun kurashi 1005-yilgacha davom etib, oxiri Qoraxoniylarning butkul g'alabasi bilan tugadi. Bunday vaziyatda Buxoroda ortiq qolib bo'lmas edi. Shu bois Ibn Sino o'z yurtini tark etib Xorazmga bosh olib ketdi. XI-asr boshlarida Xorazm qoraxoniylar hujumidan birmuncha tinch bo'lib, iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha rivojlangan o'lka edi. Xorazmshohlar Ali ibn Ma'mun (997— 1009) va Ma'mun ibn Ma'mun (1009— 1017) ilm fanga e'tiborli hukmdorlar bo'lib, olimlarga ilmiy ijod uchun qulay sharoit yaratib bergan edilar.

Ibn Sino falsafasi, asosan, Aristotel va Platonning g'oyalariga asoslangan. U metafizika, mantiq, axloq va ruhiyat masalalarini chuqur o'rgangan. Uning "Kitob ash-Shifa" (Shifo Kitobi) asari, falsafa va ilm-fanning turli sohalarini o'z ichiga oladi va bu asar o'z davrida juda mashhur bo'lgan. Ibn Sino, shuningdek, inson ruhini va uning faoliyatini o'rganishga katta e'tibor bergan. U ruh va tananing bir-biri bilan bog'liqligini ta'kidlagan va inson psixologiyasiga oid bir qator nazariyalarni ishlab chiqqan. Ibn Sino tibbiyotda ham katta yutuqlarga erishgan. Uning "Tib qonunlari" asari 5 qismdan iborat bo'lib, unda anatomiyadan tortib, kasalliklar va ularni davolash usullarigacha bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan. Bu asar Yevropada o'rta asrlarda tibbiyot ta'limining asosiy manbasi bo'lib xizmat qilgan. Ibn Sino kasalliklarning sabablari va ularni davolash usullarini ilmiy asosda bayon etgan. Ibn Sinoning merosi nafaqat Islom dunyosida, balki Yevropada ham katta ta'sir ko'rsatdi. Uning asarlari lotin tiliga tarjima qilindi va Yevropadagi ko'plab universitetlarda o'qitildi. U nafaqat

tibbiyot va falsafa, balki badiiy adabiyot va ilm-fan sohalarida ham o'z izini qoldirdi. Abu Ali Ibn Sino buyuk qomusiy alloma sifatida insoniyat tarixida muhim o'rin egallaydi. Uning ilmiy ishlari, falsafiy g'oyalari va tibbiyotdagi yutuqlari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Ibn Sinoning merosi nafaqat o'z zamonidagi ilm-fan rivojiga, balki keyingi avlodlarga ham ta'sir ko'rsatdi. U haqiqatan ham buyuk alloma bo'lib, insoniyat tarixida o'zining yuksak o'rnini egallagan.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Daly, Jonathan The Rise of Western Power: A Comparative History of Western Civilization (en). A&C Black, 2013-12-19. — s. 18. ISBN 978-1-4411-1851-6.
2. 5. (en) Avicenna | Persian philosopher and scientist, qaraldi: 2018-08-04
3. 6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2003. 9-bet
4. 7.
Sh.Do'stmuhammad,J.I.Gulshanbeko'g'li,T.ZShuhrato'g'li.AmirNasrulloBukharaAmirligi
5. Rule of Period | Zien Journal of Social Sciences and Humanities.